



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Raxmanova Zarnigor  
To'liqin qizi

*Navoiy davlat pedagogika instituti, pedagogika nazariyasi va tarixi  
yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

**PEDAGOGIK JARAYONDA TALABALARDA KREATIV TAFAKKURNI  
SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYAT**

**ANNOTATSIYA:** Talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirishning didaktik imkoniyatlari, kreativ tafakkurni tashxislash metodlari, ta'lim jarayonida kreativ tafakkurni shakllantirish yo'llari.

**KALIT SO'ZLARI:** Kreativ, tashxislash, didaktik imkoniyatlar, metod

**ANNOTATION:** Didactic possibilities of formation of creative thinking in students, methods of diagnosis of creative thinking, ways of formation of creative thinking in educational process.

**KEYWORDS:** Creative, diagnostic, didactic possibilities, method

**АННОТАЦИЯ:** Дидактические возможности формирования творческого мышления у студентов, методы диагностики творческого мышления, способы формирования творческого мышления в учебном процессе.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** творческие, диагностические, дидактические возможности, метод.

Jahondagi globallashuv va ta'limning integratsiyalashuvi jarayonlarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbga tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. O'zbekistonda ta'lim tizimini sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida malakali mutaxassislar tayyorlash



uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim muassasasida o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi. Bugungi kunda jahonda ta'limga kreativ yondashuv asosida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, pedagog kadrlarning kreativ sifatlarini rivojlantirish orqali ijodiy ta'lim jarayonini loyhalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat sohalariga yo'naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek oliy ta'limning ta'lim sifatini ta'minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Ana shu nuqtai-nazardan ilg'or xorijiy tajribalar asosida zamonaviy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish, interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalarini amaliyotga keng tatbiq etish asosida talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim o'rin tutadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov yosh avlodning kamol topishida aqliy tarbiya va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning o'rni nihoyatda beqiyos ekanligini ta'kidlab, shunday deydi: "Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rta qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ulaming sobitqadam g'ayrat - shijoatiga, to'la - to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir". Darhaqiqat, ijtimoiy ong, aql-zakovat, borliqni idrok etish, ilm cho'qqisiga intilish hissi insonni fikr tarbiyasining samarali yodlari, shakl va metodlarini takomillashtirishga undaydiki, bu o'z navbatida yosh avlodda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning ta'sirchan mexanizmlarini topishga zamin yaratadi. Pedagogik, psixologik, sotsiologik adabiyotlar tahlili tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishga doir turli qarashlar mavjudligini ko'rsatadi.

Insonning barcha mavjudotlardan yuksak jihati - bu uning fikrlash qobiliyatidir. Zotan, insonlar bir-birlari bilan o'ziga xos o'y-hayollari, mushohadalari, fikr yuritishlari, mustaqil fikrlash qobiliyatlari bilan ajralib turadi.

So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida o'quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman (2010 y.), Ken Robinson (2007 y.), Fisher, Frey (2008 y.), Begetto, Kaufman (2013 y.), Ali (2011 y.), Treffinger (2008y.) va b. tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar, ularning natijalari ko'rish mumkin. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada

yuritishda masala yuzasidan bir va ko'p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo'lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Patti Drapeau "Agarchi o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir", - deb ta'kidlaydi.

Talabalarda kreativlikni rivojlantirish ta'lim mazmunini o'zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o'qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi: talabalarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta'lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta'minlash; talabalarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g'oyalarni bag'rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash, har bir talabada uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag'batlantirish; o'quv jarayonini talaba shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish; talabalarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash; kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo'lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg'ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish.

O'quv materialini didaktik loyihalash masalasi M.Mahmudov tomonidan ancha keng tahlil etilgan. U "Didaktik loyihalashning ilk qadami o'qitish va o'qish maqsadlarini aniqlashdan iborat",- deb hisoblaydi va o'quv maqsadlarini to'rt toifaga ajratadi: bosh maqsad, oraliq maqsad, xatti-harakatga teng maqsad, erishilgan natijani o'lchash me'yori (baholash usuli). Ta'lim jarayoni bosh maqsadni mo'ljallab tashkil etiladi. Oraliq maqsadlarni amalga oshirish esa bosh maqsadga bo'ysundiriladi. Bolalar oraliq maqsadlarga erishish yo'li bilan davlat ta'lim standartida qo'yilgan talablarni o'zlashtirishadi. Xatti-harakatga teng maqsadga ko'ra o'quv faoliyatini tashkil etish shart-sharoitlari qayd etiladi, oraliq maqsadga erishishga oid vositalar, o'quv holatlari, topshiriqlari, o'quv-biluv faoliyatini amalga oshirish tartibi beriladi. Erishilgan natijani o'lchash me'yori va baholash usulida esa turli yozma va og'zaki topshiriqlarni, testlar to'plamini bajarish, o'zi va o'rtoqlari bilimidagi yutuq va kamchiliklarni baholash ko'zda tutiladi. Bu shakldagi ta'lim maqsadini belgilashni ta'lim etaloni, deb qaraladi. Demak, dars konspekti ham, ta'lim etaloni ham ikkilamchi loyihalash vositasi deb qaralishi mumkin. Shu ko'rsatmalar asosida tayyorlangan ayrim ta'lim etalonlaridan misollar keltiramiz. Masalan, maktabning pedagogika darsligida keltirilgan «O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni

mavzusini o'rganishda o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun ta'lim maqsadini quyidagicha belgilash mumkin:

**Bosh maqsad** - «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunni o'rganish va bo'lg'usi o'qituvchilarda pedagogik mahoratni shakllantirish bosqichlarini gapirib berish; bugungi kunda jamiyatimizda o'qituvchining tutgan o'rniga munosabatini bildirish; o'qituvchi shaxsining insonparvarligiga o'qituvchilari namunasida misollar keltirish. Bo'lajak o'qituvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanadi. K.Rodgers "Ijod-o'z o'zini kuchaytirish demakdir" degan asarida ijodiy shaxs uchun eng asosiy savollardan birini beradi: "Meni meni hayot tarzim qoniqtiradimi yoki to'g'ri talqin etadimi. O'qituvchining ushbu savolga javobi uning kasbiy va ijodiy cho'qqilarga intilishi yuqori ijodiy malakali va o'zini ijodiy tomondan to'la namoish etishga intilishi kreativ shaxs bo'lishi". Shunday qilib kreativlik o'qituvchining ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo'nalishi va o'zini boshqara olishida ko'rinadi va uni o'zini faolligi, o'zini-o'zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o'sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi. Pedagogning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi. Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirishdan oldin sinfda qulay muhitni yaratish lozim. Kreativ muhitda ta'lim olayotgan bo'lajak pedagoglarda asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi shuningdek, kreativ tafakkurga ega o'qituvchini kuzatish natijasida kreativ fikrlashga moyil bo'ladi (Sternberg & Williams, 1996). Kreativlik xarakteridagi o'quv-bilish muhiti bo'lajak pedagoglarda ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasining rivojlanishiga olib keladi (Boykin & Noguera, 2011, 2012; Marks, 2000, as cited in Jensen, 2013). Bo'lajak pedagoglarning kreativ tafakkurga ega bo'lishlari ularda ijodiy muhitning qanchalik tarkib toptirilganligiga bog'liq. "To'laqonli kreativlik xarakteriga ega ta'lim muhitini yaratish puxta o'ylangan rejaga tayanadi. O'qituvchilar agarda o'zlarining kreativ o'qitish metod va strategiyalarini qo'llash turlari Shaxsning hayotiy tajribasi va shaxsiy sifatlarini aniqlovchi testlar. Ijodiy tafakkur va uning natijalari (tezkorlik, samaradorlik, mahsuldorlik va aniqlovchi testlar (ya'ni keng ko'lamda o'ylash va kreativ fikrlash jarayonini tashkil etish)da katta samaradorlikka erishishni istasalar, buni bo'lajak pedagoglar ongiga singdirishlari va o'z vazifalarini sidqidildan bajarishlari lozim (Higgins, Hall, Baumfield, & Moseley, 2005)". Qolaversa, "kreativ xarakterga ega muhitdagina bo'lajak pedagoglar o'rganayotgan mavzuning mazmuni, o'quv axborotlar o'rtasidagi o'zaro aloqani tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi va bu haqida fikrlash boshlashadi (Anderson et al., 2000)". Ta'lim amaliyotining kreativ xarakter kasb eta olmayotganligi bir qator tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. M: xorijiy mamlakatlarda Begetto, Kaufman, Kirshner (2010), Sveller, Klark (2006) kabi tadqiqotchi-pedagoglar buning sabablari hamda ularni bartaraf etish shartlarini quyidagilar bilan izohlaydilar: "Ko'p hollarda, o'qituvchilar fanning faqat mazmuni bilan tanishadilar, biroq

fikrlash jarayoniga katta ahamiyat va eʼtibor va talablar qanday rivojlanishlari mumkinligi haqida hech qanday maʼlumot bermaydilar.

Xulosa qilib aytganda, talabalarning pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega boʻlgan yoʻnalishlarini tizimli tarzda oʻrganish lozim. Shuningdek, talabalarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan gʻoyalar, konsepsiyalar hamda ilgʻor pedagogik tajribalar asosida oʻqitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunlifaoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalarning kreativlik koʻnikmalarini rivojlantirish asosida ulardagi ixtisoslashgan yaʼni pedagogik kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratish, bunda zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, interfaol taʼlim metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch. –T.: Maʼnaviyat, -2008.
2. Moreno M. Методические вопросы педагогической диагностики. .-M.: Pedagogika, 1990.-94 s.
3. A.Joʻraev. Tarbiyaviy darslarni oʻtish. -T., "Oʻqituvchi",2018.
4. Z.Qoʻziev. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish. -T., 2017.
5. Махаматова, F. (2020). Развитие страхования в инновационной сфере. Архив Научных Публикаций JSPI.
6. R.Mavlonova, O.Toʻraeva, K.Xoliqberdiev. Pedagogika. -T., "Oʻqituvchi", 2019.
7. Safaraliyevna, M. F. (2021). Pedagogical bases of formation of readiness of students to work. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 528-531.
8. Safaraliyevna, M. F. (2021, January). PEDAGOGICAL BASES OF INVOLVEMENT OF STUDENTS IN LABOR EDUCATION. In Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 290-296).
9. Safaraliyevna, M. F. (2021, January). PEDAGOGICAL BASES OF INVOLVEMENT OF STUDENTS IN LABOR EDUCATION. In Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 290-296).
10. Davurova, G. (2020). Pedagogika oliy oʻquv yurti talabalarining ijodiy faoliyatini shakllantirishda psixologik xizmatni tashkil etish. Архив Научных Публикаций JSPI.